

**YASHIL SUG'URTA MAHSULOTLARI****GREEN INSURANCE PRODUCTS*****¹Kadirov Raxim
Karimovich******¹Toshkent xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi***

Uzb. - Maqlolada yashil sug'urta mahsulotlarining asosiy xususiyatlari va ularning ekologik xavflarni kamaytirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Yashil sug'urta mahsulotlari barqarorlikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, ushbu sohadagi rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolarga e'tibor qaratilgan.

Eng. - The article analyzes the main characteristics of green insurance products and their role in mitigating environmental risks. Green insurance products are considered important tools for ensuring sustainable development and environmental protection. Attention is also given to the key challenges hindering the development of this sector.

**Annotatsiya
Annotation****Kalit so'zlar:****Keywords:**

❖ *yashil sug'urta mahsulotlari, ekologik xavflar, barqaror rivojlanish, sug'urta xizmatlari, moliyaviy mexanizmlar.*
❖ *green insurance products, environmental risks, sustainable development, insurance services, financial mechanisms.*

Kirish.

Jahon miyosida ekologik muammolarning avj olishi, iqlim o'zgarishi va barqaror rivojlanishga bo'lgan ehtiyojning oshib borayotgani yashil iqtisodiyot va unga bog'liq moliyaviy vositalarni rivojlantirishga katta sur'at bermoqda. Shu jumladan, yashil sug'urta ham ekologik xavflarni kamaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynayotgan yangi yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

Yashil sug'urta - bu ekologik jihatdan mas'uliyatli sug'urta mahsulotlari va xizmatlari bo'lib, ular tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni qo'llab-quvvatlash, ekologik xavflarni kamaytirish hamda yashil texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan. Bu sohadagi rivojlanish iqtisodiy xavflarni barqaror boshqarish va ijtimoiy-iqtisodiy

ustuvorliklarni amalga oshirishda muhim omilga aylanmoqda.

Yashil sug'urta bozori so'nggi yillarda barqaror o'sish sur'atini namoyon etmoqda. Verified Market Research ma'lumotiga ko'rta, 2023-yilda global "green insurance" bozori hajmi taxminan 3,8 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Ushbu bozor 2031-yilgacha 13,4 milliard dollarga yetishi kutilmoqda, yillik o'sish sur'ati esa 15,6% CAGR etib baholanmoqda [1].

Hususan, qayta tiklanuvchi energiya obyektlarini sug'urta qilish bo'yicha bozor 2025-yilda 18,8 milliard dollarga yetib, 2030-yilgacha 27,2 milliard dollargacha o'sishi kutilayotgani aytib o'tilgan [2].

Biroq, yashil sug'urta bozorida keng miyosidagi rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolar mavjud. Ular qatoriga iste'molchilar va biznesning ushbu mahsulotga

nisbatan xabardorlik darajasining pastligi, sug‘urta premiyalarining yuqori bo‘lishi, huquqiy tarmoqning murakkabligi va an‘anaviy sug‘urta vositalari bilan kuchli raqobat kabilarni kiritish mumkin. Bu omillar bozorning o‘sishini cheklab, yashil sug‘urtaning keng joriy etilishini mo‘ljallangan darajada ta‘minlay olmayapti.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

UNEP FI (United Nations Environment Programme Finance Initiative) 2020-yilda xalqaro miyosda barqaror sug‘urtaga oid asosiy tamoyillar va standartlarni ishlab chiqqan. Bu standartlar ESG tamoyillariga muvofiq sug‘urta kompaniyalari faoliyatini muvofiqlashtirishga qaratilgandir. UNEP FI sug‘urta biznesidagi barqarorlikni ta‘minlash uchun xalqaro hamkorlikni va samarali metodologiyalarni amalga oshirishni keng targ‘ib etib keladi [3].

R.Baldwin raqamli texnologiyalar sug‘urta sohasidagi o‘zgarishlar va ESG asosidagi innovatsiyalarni qanday rivojlantirishi tahlil qilingan. Muallif raqamli platforma va sun‘iy intellektning yashil sug‘urta xizmatlarini kengaytirishdagi rolini ochib beradi. Shuningdek, raqamli transformatsiya natijasidagi yangi biznes modellari va ularning ekologiyaga ta’siri muhokama qilgan [4].

OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan 2021 yilda tayyorlangan hisobotda yashil sug‘urtaning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlari tahlil qilingan. Hisobotda yashil sug‘urta orqali yangi risklarni boshqarish, ma’lumotlarning shaffofligi va standartlashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, bozorda yashil sug‘urtaga bo‘lgan ehtiyoj va kelajakdagи istiqbollari keltirib o‘tilgan [5].

Sh.Yusufov O‘zbekistonda yashil sug‘urta mahsulotlarini joriy etishning huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini tahlil qiladi. ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillari asosida sug‘urta xizmatlarini

rivojlantirish uchun davlat siyosati va moliyaviy rahbatning muhim ekani ta‘kidlaydi. Shuningdek, muallif mahalliy bozorning xususiyatlari, iste’molchilarning ekologik mahsulotlarga bo‘lgan talabini o‘rganib, yashil sug‘urta bo‘yicha ko‘rsatkichlarni oshirish yo‘llarini taklif qiladi [6].

B.To‘rayev va D.Qodirovlar parametrik sug‘urta vositasida iqlim o‘zgarishlariga qarshi barqarorlikni ta‘minlashni tahlil qilishadi. Mahalliy fermerlar uchun yashil sug‘urta mahsulotlarining ahamiyati va ularning iqlim tahdidlari bilan kurashdagi samaradorligini bahoalashidi. Mualliflar iqlim xatarlarini hisobga olgan sug‘urta mexanizmlarini joriy etish zarurligini va ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirishni ta‘kidlaydilar [7].

A.Normatov yashil sug‘urta va moliyaning milliy iqtisodiyotdagи o‘rni o‘rganadi. Muallif ekologik xavflarni kamaytirish uchun moliyaviy vositalar, jumladan, yashil sug‘urta mahsulotlari orqali iqlim siyosatini amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mahalliy bozordagi moliyaviy imkoniyatlar tahlil qilinadi, hamda ularning yaxshilanishiga qaratilgan tavsiyalar beradi [8].

В.Иванов Rossiya sug‘urta bozorida yashil sug‘urta mahsulotlarini joriy etish va rivojlantirish masalalari tahlil qilgan. Muallif ESG tamoyillarining xususiyatlari, ularning amalga oshirilishidagi to‘siqlar va raqobat muhitini yaxshilash imkoniyatlari haqida fikr bildirgan. Shuningdek, Rossiyadagi yashil moliya va sug‘urta sohasidagi davlat dasturlari va xalqaro hamkorlik istiqbollari tahlil qilgan [9].

М.Козлов va Е.Петрова Qozog‘iston Respublikasida yashil sug‘urta vositalari va ularning iqtisodiy samaradorligi, ayniqsa iqlim va atrof-muhitga ta’sirini o‘rganishgan. Mualliflar yashil sug‘urtaning yangi moliyaviy mexanizmlarini tatbiq etishdagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llarini ko‘rsatib o‘tishgan. Shuningdek, yashil sug‘urta bozorida davlat va

xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik modellari tahlil qilingan [10].

H.Смирнова Belarusiya Respublikasida yashil sug'urta va uning ekologik va ijtimoiy ta'sirini tahlil qilingan. Muallif moliyaviy resurslarni barqaror loyihalarga yo'naltirish va yashil sug'urta mahsulotlarini keng joriy etish uchun davlat siyosati va qonunchilikni takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, bozor talablari va iste'molchilarining ekologik bilimlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan [11].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqlada nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, tahlil, sintez kabi usullar samarali qo'llanildi, shuningdek yashil sug'urta va ularni amalaga oshirish hamda rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, muammolar va ularning yechimlari borasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar va tabiiy ofatlardan xavfi butun dunyo bo'ylab sug'urta bozori oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Iqlim o'zgarishi, ekologik ofatlardan, resurslarning cheklanganligi va barqaror rivojlanish maqsadlari zamonaviy sug'urta

bozorini yangi yo'nalishlarga moslashishga majbur etmoqda. Ana shunday yo'nalishlardan biri - yashil sug'urta (green insurance) mexanizmlaridir. Yashil sug'urta - bu ESG tamoyillariga mos ravishda ishlab chiqilgan sug'urta mahsulotidir. Ushbu mahsulotlar atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy mas'uliyat va shaffof boshqaruvni qo'llab-quvvatlashga qaratilgandir.

Yashil sug'urta - bu atrof-muhitga ta'sir qiluvchi xatarlarni sug'urta qilishga qaratilgan moliyaviy mexanizm bo'lib, ekologik barqarorlikni rag'batlantiradi. U odatda quyidagi sohalarda qo'llaniladi:

- ❖ Tabiiy ofatlardan zarar ko'rgan loyihalarni qoplash (suv toshqini, qurg'oqchilik, o'rmon yong'inlari);
- ❖ Ekologik zararni bartaraf etish va atrof-muhitni tiklash loyihalarini sug'urta qilish;
- ❖ "Yashil energiya" (shu jumladan shamol va quyosh elektrostansiyalari) infratuzilmasini sug'urta orqali muhofaza qilish;
- ❖ Korxonalar faoliyatidagi ekologik tavakkalchiliklar uchun maxsus sug'urta polislari.

Yashil sug'urta nafaqat ekologik xavflarni moliyaviy tomonidan boshqarishni, balki iqtisodiyotning yashillashuviga hissa qo'shami.

1-jadval

ESG tamoyillari bo'yicha yashil sug'urta mahsulotlari

Environmental (ekologik)	<p>Tabiatga kam ta'sir qiluvchi faoliyatlarni qo'llab-quvvatlaydi (masalan, qayta tiklanadigan energiya loyihalari).</p> <p>Avtomobil sug'urtasi – elektromobillar uchun chegirmalar.</p> <p>Korxonalarning karbon izini kamaytirishga qaratilgan sug'urta himoyalari.</p>
Social (ijtimoiy)	<p>Xodimlar uchun xavfsiz ish joylarini ta'minlaydigan kompaniyalarga imtiyozli sug'urta shartlari.</p> <p>Kam ta'minlangan va zaif guruuhlar uchun inkiyuziv sug'urta xizmatlari</p>
Governance (boshqaruv)	<p>Korporativ shaffoflik, odil boshqaruv va korrupsiyaga qarshi kurashni qo'llab-quvvatlovchi sug'urta kompaniyalari.</p> <p>ESG risklarini baholash va hisobot berish tizimlari bilan integratsiya.</p>

Yashil sug'urta nafaqat atrof-muhitni muhofaza qiladi, balki moliyaviy tizim barqarorligini ham ta'minlaydi. Uning samaralari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Xavflarni kamaytirish – ekologik loyihalarni amalga oshirishdagi tavakkalchiliklarni sug'urta orqali boshqarish.

Sarmoyani jalg qilish – yashil loyihalarni sug‘urta qilish orqali ularning investitsion jozibadorligi oshadi.

Ijtimoiy barqarorlik – tabiiy ofatlar oqibatida aholi va biznesning iqtisodiy yo‘qotishlarini qoplash.

Iqlimga moslashuv – iqlim o‘zgarishi oqibatida vujudga keluvchi risklarni moliyaviy mexanizmlar orqali moslashtirish.

Bu borada ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribalarini tahlil qiladigan bo‘lsak qo‘yidagilarni ko‘zatishimiz mumkin bo‘ladi. Masalan, Germaniya Yevropada yashil iqtisodiyot va yashil sug‘urta mexanizmlarini rivojlantirish bo‘yicha yetakchi davlatlaridan biridir. Mamlakatda quyosh va shamol energetikasi obyektlarini sug‘urta qilish uchun maxsus polislari ishlab chiqilgan. Bunda “Munich Re” va “Allianz” kabi yetakchi sug‘urta kompaniyalari iqlim xavflariga qarshi sug‘urta mahsulotlarini taklif etish bo‘yicha yetakchilik qilib kelmoqda. Hamda davlat tomonidan iqlim xavflariga oid subsidiyalar va soliq imtiyozlari joriy etilgandir. Bunday amaliyot natijasida mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya loyihalarda risklar darajasi pasaygan va investitsiyalar oqimi oshganligini namoyon etgan.

Yaponiyada tabiiy ofatlar (zilzila, sunami, tufonlar) riski yuqori bo‘lgan mamlakat sifatida parametrik sug‘urta tizimini joriy qilgan. Bunda sug‘urta polislari iqlim yoki geofizik ko‘rsatkichlarga asoslanadi (masalan, 6 balldan yuqori zilzila). Sug‘urta to‘lovlar real zarar emas, balki aniq bir ko‘rsatkich asosida avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Bundan tashqari xususiy sektor bilan hamkorlikda yashil loyihalalar uchun risklardan samarali himoya mexanizmlari keng joriy etilgandir. Bularning natidasija sun‘iy kechiktirishlarsiz va shaffof moliyaviy himoya orqali barqaror loyihalarni rag‘batlantirish mexanizmlari samarali ishlab kelmoqda.

AQSh qishloq xo‘jaligi departamenti va xususiy sug‘urta kompaniyalari bilan hamkorlikda mijozlarga qurg‘oqchilik, to‘fon va

ob-havo haroratlari uchun maxsus qishloq xo‘jalik mahsulotlari joriy etilgan. Bunda “Federal Crop Insurance Program” dasturi orqali qishloq xo‘jaligi subyektlarining risklarni sug‘urta himoyasiga keng jalg qilingan hamda “Green bond” bozori orqali SO₂ risklarini sug‘urta qilish mexanizmlari ishlab chiqilgandir. Buning natijasida qishloq xo‘jaligi subyektlari tabiiy ofatlardan kamroq zarar ko‘rishadi va yashil agrotexnologiyalarga samarali investitsiyalarni kiritib borishi rag‘batlantirib boriladi.

Shveysariyada sug‘urta kompaniyalari ESG reytinglari asosida ekologik xavfni baholash amaliyoti keng joriy qilgan. Bunda “Swiss Re” kabi yirik sug‘urta kompaniyalar iqlim o‘zgarishiga qarshi risk modellari va aktuar hisob-kitoblarni samarali standartlashtirishganlar. Bunda yashil sug‘urta polislari yagona ma’lumot bazalari bilan bog‘langandir. Natijada sug‘urta kompaniyalari ekologik risklarni samarali va oqilona baholaydi hamda ESG tamoyillarni asosida investitsiyalarni amalaga oshirishni ta’minlab kelishmoqda.

Hozirgi global iqlim o‘zgarishlari, ekologik risklarning ortishi va barqaror rivojlanish tamoyillarining dolzarbli tufayli “yashil sug‘urta” turi sug‘urta bozorining yangi, istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib borayotganini qzrishimiz mumkin. Biroq ushbu sohaning keng rivojlanishiga turli cheklovlar va to‘silalar salbiy ta’sir o’tkazib kelmoqda, ularning asosiylari qo‘yidagilardan iboratdir, jumladan:

Birinchidan, bilim va xabardorlikning yetishmasligi. Yashil sug‘urta bozoridagi eng asosiy cheklovlardan biri – aholi va biznes subyektlarining ushbu mahsulot haqida yetarlicha ma’lumotga ega emasligidir. Ko‘pgina iste’molchilar yashil sug‘urta polislarning ahamiyati, beriladigan kafolatlar va foydasi haqida to‘liq tushunchaga ega emas. Bu esa ularning bunday sug‘urta turiga nisbatan shubha va passiv munosabatda bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Ayniqsa, sug'urta agentlari va brokerlar tomonidan ham yashil sug'urta mahsulotlarini targ'ib qilish va tushuntirish darajasi past bo'lishi ushbu muammoni yanada chuqurlashtirmoqda. Shuning uchun bozorda hozircha talab past bo'lib, bu esa uning kengayishini cheklab kelmoqda. Mazkur muammoning yechimi sifatida maqsadli axborot kampaniyalari va ta'lim dasturlari tashkil etish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, sug'urta mukofotlari bo'yicha tarif stavkalarning yuqoriligi. Yashil sug'urta turlari ko'pincha an'anaviy sug'urta polislari nisbatan qimmatroq bo'ladi. Bunday polislarda ko'proq qamrov, uzoq muddatlari ekologik xavflar uchun to'lovlari, va yuqori xatarli tabiiy ofatlar uchun qo'shimcha kafolatlar mavjud bo'lib, ular mukofotlarning oshishiga sabab bo'ladi. Pul masalasiga qattiq e'tibor qaratuvchi iste'molchilar bu kabi polislardan voz kechishi yoki arzonroq an'anaviy sug'urta turlarini afzal ko'rishlari mumkin. Hozirda bozordagi raqobat mukammal darajada emasligi tufayli yashil sug'urta tariflari nisbatan qimmatroq, bu esa ularni keng joriy etilishini cheklab qo'ymoqda.

Uchinchidan, huquqiy bazaning murakkabligi. Yashil sug'urta mahsulotlarini yaratish va joriy etishdagi yana bir muhim to'siq - bu regulyatorlar tomonidan belgilangan qonunchilik va normativ talablarning murakkabligi hisoblanadi. Har bir mamlakatda ekologik xavflar va barqaror sug'urta bilan bog'liq huquqiy yondashuvlar farq qiladi. Bunday omillar sug'urta kompaniyalarini yangi mahsulotlar ishlab chiqishdan qaytarishi mumkinligi, ayrim hollarda regulyatorlar tomonidan haddan tashqari cheklovlar yoki yuqori huquqiy risklar kompaniyalarni bunday faoliyatni yana bir bor o'ylab ko'rishni taqazo etadi. Natijada esa bozordagi mahsulotlar turi kam va cheklangan bo'lib qolaveradi.

To'rtinchidan, an'anaviy sug'urta mahsulotlari bilan kuchli raqobat. Yashil sug'urta bozoridagi yana bir jiddiy muammo - an'anaviy sug'urta kompaniyalari bilan kuchli

raqobatdir. Uzoq yillik tajriba, yirik mijozlar bazasi va katta reklama byudjetiga ega bo'lgan an'anaviy kompaniyalar mijozlarning ishonchini saqlab qolishda davom etmoqda. Yashil sug'urta esa hali ham ko'pchilik uchun yangi, noodatiy mahsulot sifatida qabul qilinadi. Bu holat mijozlarni yangiliklardan qo'rqishiga, konservativ yondashuvni saqlab qolishiga sabab bo'ladi. Bunday vaziyatda kreativ marketing, ijtimoiy reklama va ESG qadriyatlarini keng yoritish orqali jamoatchilik ongini shakllantirish muhim vazifa sifatida ko'rildi.

Xulosa va takliflar.

Yashil sug'urta bozori jahon miyosida jadal rivojlanmoqda va barqaror iqtisodiy o'sishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu sohadagi innovatsion sug'urta mahsulotlari ekologik xavflarni kamaytirishga, atrof-muhitni muhofaza qilishga va yashil texnologiyalarni joriy etishga xizmat qiladi. Biroq, bozorning o'sishiga to'sqinlik qiluvchi bir qator omillar - past ma'lumot va xabardorlik, yuqori sug'urta premiyalari, murakkab normativ-huquqiy bazalar hamda an'anaviy sug'urta vositalari bilan raqobat - e'tiborga olinishi zarur.

Yashil sug'urtani keng joriy etish va bozorni rivojlantirish uchun miqdoriy va sifatli ma'lumotlarni oshirish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, huquqiy hujjatlar va standartlarni takomillashtirish muhimdir. Xorijiy mamlakatlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, barqaror rivojlanishga qaratilgan siyosat va innovatsion yondashuvlar yashil sug'urta bozorining muvaffaqiyati uchun muhim omil hisoblanadi.

Yashil sug'urta bozoridagi o'sish iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy maqsadlarga erishishda katta imkoniyatlar ochmoqda. Shuning uchun ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirish uchun zamonaviy yondashuvlarni joriy etish va muammolarni bartaraf etish ustuvor vazifa sifatida qaralishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Verified Market Research. *Green Insurance Market Size and Forecast. – 2023.* – Режим доступа: <https://www.verifiedmarketresearch.com/product/green-insurance-market> – Дата обращения: 20.06.2025.
2. Reuters. *Renewable energy offers a cost and opportunity to insurance sector // Reuters.com. – 2024.* – 7 ноябр. – Режим доступа: <https://www.reuters.com/business/energy/renewable-energy-offers-cost-opportunity-insurance-sector-2024-11-07> – Дата обращения: 20.06.2025.
3. Principles for Sustainable Insurance: Global Framework / UNEP FI. – 2020. – 45 p.
4. Baldwin R. *The Impact of Digital Technologies on Sustainable Insurance // Journal of Sustainable Finance.* – 2019. – Vol. 12, №4. – P. 210–225.
5. *Green Insurance and Risk Management: Challenges and Opportunities / OECD.* – 2021. – 60 p.
6. Yusufov Sh. *O'zbekistonda yashil sug'urta bozorini rivojlantirish istiqbollari // Iqtisodiy tahlillar jurnali.* – 2023. – №5. – B. 45–53.
7. To'rayev B., Qodirov D. *Qishloq xo'jaligida yashil sug'urta mexanizmlari // Qishloq xo'jaligi va innovatsiyalar.* – 2022. – №3. – B. 22–30.
8. Normatov A. *Yashil moliya va sug'urta: O'zbekiston uchun yangi imkoniyatlar // Moliya va sug'urta masalalari.* – 2024. – №1. – B. 15–24.
9. Иванов В. *Зелёное страхование: принципы ESG на российском рынке // Анализ экономики России.* – 2021. – №7. – Ст. 60–70.
10. Козлов М., Петрова Е. *Механизмы зеленого страхования и их эффективность в Казахстане // Журнал финансовых и экологических исследований.* – 2023. – №2. – Ст. 34–42.
11. Смирнова Н. *Обеспечение зеленого страхования и стабильности в Беларуси // Экология и экономика.* – 2022. – №6. – Ст. 50–58.